



## ZAMONAVIY KADRLARNING KOMPYUTER SAVODXONLIGI- ULARNING RAQOBATBARDOSHLIGI OMILI SIFATIDA.

**Bahronov Otabek Najmiddinovich**

G'ijduvon tuman 1 –son kasb-hunar maktabi  
umumta'lim fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11277309>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy kadrlar, ularning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalari, kadrlar raqobatbardoshligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy kadr, shaxsiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kompyuter savodxonligi.

### ANNOTATION

This article covers the issues of modern personnel, their professional and personal competencies, effective use of information and communication technologies in the competitiveness of personnel.

**Key words:** modern personnel, personal competence, professional competence, computer literacy.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2026-yilda Xalqaro informatika olimpiadasi ilk bor O'zbekistonda o'tkazilishini ma'lum qildi va jahon iqtisodiyoti tez o'zgarib borayotgan sharoitda hech bir sohani raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidladi. Shundan kelib chiqqan holda, zamonaviy raqobat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lishda kompyuter savodxonligi, dasturlashning ahamiyati juda muhimligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

Bugungi kunda kasb-hunar maktablarida ishchi kasblarni tayyorlash, ularda kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda kompetensiya, uning mazmuniga to'xtalib o'tamiz. Kompetensiya (lotincha: competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.

Shaxsiy kompetensiya ishchining insoniy ya'ni shaxsiy sifatlaridir. Masalan, insonning vijdoni, mas'uliyati, mehnatsevarligi, o'z kasbini sevishi, etikasi va boshq asifatlar kiradi. Kadrlarning shaxsiy sifatlarini shakllantirish uning bolaligi, tarbiya topgan muhiti, ma'naviyati, qadriyatlarini bilan bog'liqdir.





Kasb-hunar maktablaridagi ta'lim jarayoni esa, ulardagi mavjud sifatlarni yanda rivojlantirishga, o'z kasbiga muhabbat uyg'otishga xizmat qiladi.


Kasbiy kompetensiya –bu ischining o'z ishini bajarish jarayonidagi tajribasi, sohasiga oid bilim va ko'nikmalaridir. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham mutanosib olib borilishi kerak. Bizning kasb-hunar maktabimizda ham “Apparat va dasturiy ta'minot “ sozlovchisi yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Bugungi kunda ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilmogda:

- Kompyuter xonalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlangan;
- O'z sohasining yetuk mutaxassislari bo'lgan pedagoglar maxsus fanlar va o'quv amaliyotlarini olib boradilar;
- Har bir o'quvchi bo'sh vaqtida bemalol kompyuter qurilmalari, uning dasturiy mahsulotlari bilan ishlash muhiti yaratilgan;
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan ta'limni uzviy bog'lash maqsadida dual ta'lim yo'lga qo'yilgan;
- O'quvchilar o'rtasida muntazam tanlovlarning tashkil etilishi ularning o'z sohasiga bo'lgan qiziqishini yanada orttirmogda;
- Boshqa mutaxassislik yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarning ixtisoslik darslarida ham kompyuter texnikasi va dasturlaridan muntazam foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Yuqoridagi amalga oshirilgan ishlar har bir ta'lim muassasasida amalga oshirilsa, ta'lim samaradorligi yanda yuqori bo'las va shaxsiy, kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan yetuk kadrlar yetishib chiqadi degan umiddamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik.Uslubiy qo'llanma. -T.: BROK SLASS SERVIS, 2016. – 84b.
2. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. [www.eidoc.ru](http://www.eidoc.ru). 2005, 09, 10.
3. Лебедев О.Е. Компетентносный подход в образовании. [www.nekrasovepb.ru](http://www.nekrasovepb.ru)
4. Зимняя И.А., И.А. Ключевных. Компетенции – новая парадигма результата образования. [quality.petrso.ru](http://quality.petrso.ru)
- 5.Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 15-21.





- 6.Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 8-14.
- 7.Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. Gospodarka i Innowacje., 46, 620-627.
- 8.Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.

